TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

JO‘RAYEV DILMUROT MUXTOROVICH

MA’MURIY VA OMMAVIY HUQUQIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA KELISHUV BITIMI

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 347.15 (102)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Yu720-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Musayev Bekzod Tursunboyevich** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ro‘zmetov Xayrulla Ibadullayevich** yuridik fanlar doktori, dotsent
	Javliyev Nurali Bahodirovich yuridik fanlar nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 14-dekabr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1258-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 02-dekabrda tarqatildi.

(2024-yil 02-dekabrdagi 17-raqamli reyestr bayonnomasi).

R.R.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

F.B.Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.R.Bekov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

JO‘RAYEV DILMUROT MUXTOROVICH

MA’MURIY VA OMMAVIY HUQUQIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA KELISHUV BITIMI

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

KIRISH (DISSERTATSIYA ANNOTATSIYASI)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda sud tizimida ma’muriy sudlarning roli jismoniy yoki yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ma’muriyat tomonidan buzilishining oldini olish, g‘ayriqonuniy qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan davlat nazoratini o‘rnatish orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, nizolarni hal qilishning muqobil usuli sifatida kelishuv jarayoni keng qo‘llanilishi natijasida 60-80 foiz nizolar o‘zaro kelishuv orqali hal qilinishi, demokratik institut sifatida namoyon bo‘ladi[1]. Shu sababli fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlarini tiklashda sudlarning, ayniqsa, ma’muriy sudlarning o‘rnini kuchaytirish, ularni fuqaro va tadbirkorlarning haqiqiy himoyachisiga aylantirish zarur hisoblanadi.

Jahonda sud nizolarini, xususan, ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni muqobil usullarda hal etishga katta e’tibor qaratilib, bu orqali sud yukini kamaytirishga, taraflar o‘rtasidagi nizoni yustitsiyada uzoq vaqt ko‘rilishini cheklashga, taraflar o‘rtasida nizoli huquqiy munosabatlar davomli mavjud bo‘lishining oldini olishga, nizoda taraflar o‘rtasida o‘zaro yon berishlarga erishib ularda hamkorlik munosabatlarini saqlab qolishga, sudda ko‘riladigan nizolarning katta qismini kelishuv instansiyalarida hal etishga alohida urg‘u beriladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi konstitutsiyaviy normasiga asoslangan bo‘lib, ushbu islohotlar “ma’muriy sudlarning birinchi navbatdagi vazifasi fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan munosabatlarida qonun ustuvorligini ta’minlash bilan bir qatorda ular huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish” [2] orqali ma’muriy sud ishlarini yuritishni xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda takomillashtirishga qaratilgan. Bundan tashqari, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 15-maqsadi sifatida nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, kelishuv institutini qo‘llash doirasini yanada kengaytirish[3] belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PQ–107-son qarori 2-bandining beshinchi xatboshisida ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo‘yicha taraflar o‘rtasida kelishuvga erishish mexanizmlarini joriy qilish belgilangandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risi”da PF-158-son Farmonida 2030-yilgacha erishiladigan

---

[1] Rosenberg J. D. In defense of mediation //Ariz. L. Rev. – 2023. – T. 33. – C. 467.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta’minlash hamda aholining sudlarga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-107-son Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 07/22/107/0083-son

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son

maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri sifatida sudga qadar bosqichda nizolarni hal qilish samaradorligini 50 foizga oshirish, sudga qadar hal etilishi mumkin bo‘lgan nizolar yuzasidan sudlarga kelib tushadigan ishlar sonini 50 foizga kamaytirish vazifasi belgilangan[4]. Ushbu vazifalar sohada ilmiy tadqiqot o‘tkazish zaruratini oldimizga qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 4850-son (2016) Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 4966-son (2017) Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi (2018), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4754-son (2020) Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-sonli (2022) Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-447-son (2022) Qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-833-son (2023) Qonuni va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertatsiya O‘zbekistonda Ma’muriy va ommaviy huquqiy nizolarni hal etishning muqobil usullari va kelishuv bitimiga bag‘ishlangan dastlabki kompleks tadqiqot ishi hisoblanadi.

Mazkur mavzuning ayrim jihatlarini ilmiy tadqiqot obekti sifatida E.Xojiyev, T.Xojiyev (Ma’muriy huquq), J.Nematov (O‘zbekiston respublikasida ma’muriy protseduralar institutini takomillashtirish qiyosiy-huquqiy tahlil, Ma’muriy sud ishlarini yuritishda sudga taalluqlilikning ayrim huquqiy muammolari, Ma’muriy huquq) S.A.Murataev, B.T.Musaev, D.R.Artikov (Ma’muriy huquq va protsess), Sh.Bakayev (O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy sudlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish) K.S.Avezov (Iqtisodiy protsesda taraflarning

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risi”da PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son

huquqiy maqomini takomillashtirish), S.A.Maripova (Fuqarolik protsessida mediatsiyani qo‘llash: qiyosiy huquqiy tahlil), Sh.Masadikov (O‘zbekiston Respublikasida mediatsiyaning mohiyati va uni huquqiy tartibga solish muammolari), H.T.Odilqoriev (O‘zbekiston davlati va jamiyati innovatsion rivojlanishning huquqiy jihatlari), Sh.T.Ikramov, I.A.Xamedov (ma’muriy huquq) ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

Shu bilan birga xorijiy mamlakatlarda ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlarda kelib chiqadigan nizolarni muqobil usullarda hal etishning ayrim jihatlari T.K.Primak, M.Alexina, G.V.Sevastyanov, R.Paund, Ye.A.Borisova, T.V.Xudoykina, I.Reshetnikova, Yu.Kolyasnikova, S.I.Kalashnikova, O.O.Juravleva, Ye.I.Nosireva, O.Pavlova, M.Ye.Mednikova, Yu.A.Tixomirov, Yu.A.Tixomirov, S.F.Afanasev, A.I.Xersonsev, E.Carrol, K.Mackie, A.N.Kuzbagarov, Max-Jürgen, V.V.Yarkov, D.L.Davidenko, D.Abushenko, N.A Gromoshina, Ye.S.Ganicheva, P.V.Donsov, N.A.Baxshieva, Yorg Pudelka, A.K.Soloveva, V.V.Sajina, N.G.Salisheva, F.S.Maxdiev, N.A.Tunina, B.L.Dufourcq, S.Vigouroux, F.Mallol, G.Kalfleche, A.A.Solovev, D.Costa, J.B.Racine, M.Mercier, Me Granjon, V.Kulikov, K.Pavel, S.N.Maxina, E.N.Klyushina, V.A.Razgildeev, D.Esplin, V.Bondy, M.Doyle, F.Steffek, A.Balthasar, M.V.Arakelova, A.V.Belousov, P.N.Biryukov, V.A.Abolonin, P.V.Donsov, L.Jacobs, A.D.Sydelnikov, N.G.Kiper, E.B.Luparev, M.S.Pavlova va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan[5].

Shunga qaramasdan, ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni muqobil usullar orqali sudda hal etish va kelishuv bitimi masalasi ma’muriy huquq nuqtayi nazaridan, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini tahlil qilgan holda O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan tadqiqot ishi sifatida o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi (2017-2021 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda muqobil usulda hal etishni kengaytirish va kelishuv bitimi tuzish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda muqobil usullarda hal etish yuzasidan kelishuv institutining rivojlanishi va uning ahamiyatini ko‘rsatib berish;

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizo tushunchasi va uning konseptual asoslarini tahlil qilish;

[5] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

kelishuv tartib-taomili tushunchasi, huquqiy tabiati, nazariy huquqiy asoslarini yoritib berish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, nizolarni sudda hal etishda kelishuv tartib-taomillarini va kelishuv bitimini qo‘llashning amaliy-nazariy asoslarini tahlil qilish orqali sohadagi muammolarni aniqlash;

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni kelishuv tartib-taomillari va kelishuv bitimi orqali hal etish yuzasidan xorijiy tajribani o‘rganish;

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni kelishuv tartib-taomillari va kelishuv bitimi orqali hal etishga ta’sir etuvchi sudlovga taalluqlilik, ma’muriy shartnoma, dastlabki eshitish, dastlabki qaror tushunchalarini xorijiy tajriba asosida tahlil qilish;

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda kelishuv tartib-taomillarini va kelishuv bitimini qo‘llash istiqbollari yuzasidan milliy qonunchilikni tahlil qilish;

ma’muriy nizolarni sudda hal etishda kelishuv tartib-taomillarini va kelishuv bitimini qo‘llash imkoniyatini qonunchilik va sud amaliyoti tahlilidan kelib chiqib o‘rganish hamda milliy qonunchiligimizni rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obekti nizoli huquqiy munosabatlarga nisbatan muqobil usulni qo‘llash va kelishuv bitimi tuzish bilan bog‘liq ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekistonda ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda muqobil usulda hal etish va kelishuv bitimi tuzish bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va tajribasi, yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borish jarayonida qiyosiy-huquqiy tadqiqot, empirik tadqiqot, mantiqiy, tahliliy, tarixiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, sotsiologik, statistik ma’lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda hal etishda kelishuv bitimi tuzishni joriy qilish lozimligi asoslantirilgan;

kelishuv bitimining shakli va mazmuniga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqilib, unga ko‘ra kelishuv bitimi yozma shaklda tuzilishi, bitim bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi taraflarni bir-biriga yoki boshqa voqealarga, harakatlarga bog’liq qilib qo‘yishi mumkin emasligi asoslab berilgan;

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda hal etishda kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish jarayonida sud tomonida uning qonunchilikka, uchinchi shaxslarning manfaatlariga zid emasligi aniqlanishi lozimligi asoslangan;

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha tuzilgan kelishuv bitimini sud tomonidan rad etish asoslari ishlab chiqilgan, jumladan, bitim ishtirokchisi sanalgan javobgarda ma‘muriy ixtiyoriylik bo‘lmasa,

bitim shartli tuzilgan bo‘lsa kelishuv bitimini tasdiqlash sud tomonidan rad etilishi lozimligi asoslantirilgan;

agar ma’muriy sudning ayni bir shaxslar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki ish yuritishni tugatish haqidagi ajrimi yoxud kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi ajrimi mavjud bo‘lsa, sudya arizani (shikoyatni) ish yuritishga qabul qilishni rad etishi lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda hal etishda kelishuv tartib-taomillarini qo‘llash mumkinligi asoslantirilgan;

nizolarni hal etishning muqobil usullaridan ma’muriy nizolarni hal etishda foydalanish ham moddiy, ham ma’naviy jihatdan samarali hisoblanishi, nizo ishtirokchilari, qolaversa davlat boshqaruvi uchun ham foydali sanalishi, nizolarni muqobil usullarda hal etish nizolarni sud muhokamasida hal etishdan ko‘ra samaraliroq ekanligi va bu nizolarning batamom yakun topishi uchun xizmat qilishi asoslantirilgan;

sudda nizolarni muqobil usulda hal etishda kelishuv tartib-taomillari bilan shug‘ullanadigan alohida tayyorgarlikka, tajribaga ega sudya-mediator (vositachi), alohida olib boriladigan sud mediatsiyasi jarayonini joriy qilish istiqbolli natijalarini ta’minlovchi omil ekanligi asoslantirilgan;

nizolarni sudda kelishuv tartib-taomillarini qo‘llash orqali hal etishga oid qonunchilikni tarmoq yuridik fanlari doirasida amaliy va nazariy jihatdan umumlashtirish lozimligi asoslantirilgan;

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni muqobil usulda hal etishda kelishuv tartib-taomillarini ma’lum me’yoriy cheklovlarni o‘rnatgan holda amalga oshirish mumkinligi asoslantirilgan;

ma’muriy nizolarni muqobil usullarda hal etishda kelishuv tartib-taomillarini qo‘llash uchun vositachini erkin tanlash, jarayonlarini erkin tashkillashtirish davlat moliya tizimiga zarar keltirishi mumkinligi, shu sababli ma’muriy nizolarda kelishtirish protsedurasini amaliyotga joriy etishda faqatgina ma’muriy nizolarni muqobil usulda hal etish jarayonlarini belgilagan vositachi (mediator, sudya-mediator)lar tomonidan, alohida tartiblarda olib borilishi lozimligi asoslantirilgan;

nizolarni sudda muqobil usulda hal etishda dastlabki eshitish bosqichi, dastlabki ma’muriy akt qabul qilish masalasi muhim ekanligi asoslantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonunini ma’muriy nizolarni hal etishda ham qo‘llash bo‘yicha taklif ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasi MSIYutKning kelishuv bitimini tuzishga oid normalarini takomillashtirish, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

nizolarni sudda hal etishda alohida olib boriladigan sud mediatsiyasi protsedurasini tashkil etish, sudda kelishtiruv jarayonlari bilan shug‘ullanadigan alohida sudya mediator, vositachi lavozimini joriy etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijasida xorijiy va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti o‘rganildi. Ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirildi va bu bo‘yicha tegishli hujjatlar olindi. Tadqiqot ishi doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilindi hamda vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlandi va amaliyotga joriy qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Ma’muriy huquq, Fuqarolik huquqi, Iqtisodiy huquq sohalarida tadqiqot ishlarini olib borishda, “Davlat va huquq nazariyasi”, “Ma’muriy huquq”, “Ma’muriy sud ish yurituvi”, “Konstitutsiyaviy huquq” kabi fanlarni o‘qitish jarayonida hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ma’muriy nizolarni sudda muqobil usulda hal etish amaliyotini keng joriy etishga qaratilgan qator qoida va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqilganligida ifodalanadi hamda uning natijalaridan sohaga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishda, sudlar tomonidan ma’muriy nizolarni hal etishda kelishuv tartib-taomillarini qo‘llash amaliyotida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda foydalanilgan:

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda hal etishda kelishuv bitimi tuzishni joriy qilish lozimligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi MSIYutKning 126^{1}-moddasi birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2023 yil 13 iyunda 04/2-10/2149-son bilan qayd etilgan dalolatnomasi). Ushbu takliflarning amalga oshirilishi qonunchilikda ma’muriy nizolarni muqobil usulda hal etish imkoni va amaliyotining vujudga kelishiga xizmat qilgan;

kelishuv bitimining shakli va mazmuni yuzasidan kelishuv bitimi yozma shaklda tuzilishi, uni tuzgan shaxslar tomonidan imzolanishi, bitim bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi, taraflarni bir-biriga yoki boshqa voqealarga, harakatlarga bog’liq qilib qo‘yishi mumkin emasligi, bitimda sud xarajatlarini taqsimlash to‘g‘risidagi shart mavjud bo‘lmasa, bu masala bitimni tasdiqlash chog‘ida hal etilishi lozimligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi MSIYutKning 126^{2}-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2023-yil 13-iyunda 04/2-10/2149-son bilan qayd etilgan dalolatnomasi). Ushbu takliflarning amalga oshirilishi qonunchilikda ma’muriy nizolarni muqobil usulda hal etish imkoni va amaliyotining vujudga kelishiga xizmat qilgan;

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda hal etishda kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish yuzasidan kelishuv bitimi ishni ko‘rayotgan sud tomonidan taraflar ishtirokida tasdiqlanishi, kelishuv bitimini tasdiqlash jarayonida sud tomonidan uning

qonunchilikka, uchinchi shaxslarning manfaatlariga zid emasligi aniqlanishi, kelishuv bitimini tasdiqlashda ish yuritishdan tugatilishi va bu haqda sud ajrim chiqarishi lozimligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi MSIYutKning 126^3-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023 yil 29 maydagi 1-197-23 sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi normativ hujjatlarda ma’muriy nizolarni muqobil usulda hal etish imkonining vujudga kelishiga xizmat qilgan.

ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda hal etishda kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etish yuzasidan kelishuv bitimining shartlari qonunchilikka zid bo‘lsa, bitim shartlari uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxl qilsa, hamda ushbu uchinchi shaxslarning kelishuv bo‘yicha roziligi bo‘lmasa, javobgarda ma‘muriy ixtiyoriylik bo‘lmasa, bitim shartli tuzilgan bo‘lsa, kelishuv bitimini tasdiqlash rad etilishi lozimligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi MSIYutKning 126^5-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2023-yil 13-iyunda 04/2-10/2149-son bilan qayd etilgan dalolatnomasi). Ushbu takliflarning amalga oshirilishi qonunchilikda ma’muriy nizolarni muqobil usulda hal etish imkoni va amaliyotining vujudga kelishiga xizmat qilgan;

agar ma’muriy sudning ayni bir shaxslar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki ish yuritishni tugatish haqidagi ajrimi yoxud kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi ajrimi mavjud bo‘lsa, sudya arizani (shikoyatni) ish yuritishga qabul qilishni rad etishi lozimligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi MSIYutKning 133-modda birinchi qismining 2-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2023 yil 13 iyunda 04/2-10/2149-son bilan qayd etilgan dalolatnomasi). Ushbu takliflarning amalga oshirilishi qonunchilikda ma’muriy nizolarni muqobil usulda hal etish imkoni va amaliyotining vujudga kelishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan OAK nashrlarida 7 ta maqola (4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, tadqiqotning respublika fan-texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya ishining oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ish rejasi bilan o‘zaro bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari, ushbu natijalarning ishonchliligi, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, approbatsiyasi hamda natijalarining e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi kabi masalalar yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ma’muriy nizolarni sudda kelishuv tartib – taomili orqali hal etish ahamiyati va rivojlanishi”** deb nomlanib, ushbu bobda ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizo tushunchasi, ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishning muqobil usullari, kelishuv tartib-taomilining asosiy tushunchalari, huquqiy tabiati va nazariy-huquqiy asoslari o‘rganildi.

Tixomirov Yu.A., Andreeva I. S., Guliga A. V., Illarionova T. I., Tixomirov Yu. A., S.F.Afanasyev, Davidenko D. L. Yorg Pudelka, Xersonsev A.I., Carroll E., Mackie K., David R., Joffre-Spinozi K., Kuzbagarov A.N., Prof. Dr Max-Jürgen Seibert, Dr Matthias Keller, Sevastyanov G. V., sыplenkova A. V. Yarkov V. V., D.Jo‘raev, Shershenevich G.F., Kuzbagarov A.N., Xudoykina T.V., Voskobitova L. A. Sitnikova O. V., Klechkin A. A. Latuxina K., Odilqoriev X., Ganibaeva Sh. Kudryashov A. A. Zaxaryaщeva I. Yu., Nosыreva Ye. I., Pavlushina A.A., Alexina M. Primak T.K., Yanchenko I.L., Fedorov M.V., Xojiyev E., Xojiyev T., Nematov J., Murataev S.A., Musaev B.T., Artikov D.R., Shtendr M., Melnik R.S., Sevastyanov G.V., Paund R., Borisovoy Ye.A., Kurbatov V. I., Xudoykina T.V., Maripova S.A., Reshetnikova I., Kalashnikova S.I., Kotlyarov V.V., Nosireva Ye. I., Madvaliev M., Rojkova M.A. Kleandrov M.I., Pavlova O., Mednikova M.Ye., Avezov S.K., Abushenko D., Gromoshina N.A., Ganicheva Y. S. kabi olimlarning asarlarini o‘rganish asosida dissertatsiyaning mazkur bobida ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni yustitsiyada hal etishda qo‘llaniladigan muqobil usullar, kelishuv tartib-taomili tushunchasi, fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sudlarining amalda nizolarni muqobil usulda hal etish tajribasi kabi masalalar tahlil qilingan va huquqiy amaliyotda va fanda nizolarni hal etishning muzokara, mediatsiya, hakamlik (arbitraj), xalqaro tijorat arbitraji, sud tomonidan yarashtirish, nizolarni hal etishning sudgacha bo‘lgan tartibi va ombudsman kabi usullari mavjudligi, nizolarni hal etishning muqobil usullari sifatida keltirilgan ushbu ro‘yxat tugal emasligi va uni qonunchilik taqiqlamagan usullarda istagancha kengaytirish mumkinligi haqida va boshqa xulosalarga kelingan. Hamda quyidagi tushunchalar doirasida o‘rganishlar olib borilgan.

“Kelishuv”, “kelishtirish jarayoni”, kelishuv tartib- taomili huquqiy voqelikning deyarli bir xil hodisasini aks ettiradigan ixtisoslashgan shaxslar, tashkilotlar ko‘magida nizo taraflarining roziligiga erishish jarayonidir.

Instrumental nuqtai-nazardan kelishuv, muzokara, vositachilik va dastlabki eshitish jarayonlarini o‘z ichiga olgan murosaga kelish tartib-qoidalarining to‘plamidir.

“Kelishuv jarayoni” va “kelishuv tartibi” tushunchalari kelishuv bitimining dinamik jihatini ifodalaydi. Kelishuv jarayoni – nizolashayotgan tomonlarning va boshqa shaxslarning (sudya-mediatorlar, mediatorlar, yarashtirish komissiyalari, kvazisud organlarining) kelishuvga erishish bo‘yicha qonun bilan tartibga solinadigan, harakatlari majmuidir[6]. Bunda ushbu jarayon uchinchi shaxslarning (mediator, sudya-mediator, vositachi) ko‘magida yoki bunday shaxslar ko‘magisiz nizoli vaziyat ko‘rib chiqiladi.

Shu bilan birga kelishtirish jarayonlari har qanday nizoni hal qilishda murosaga kelish harakatlari tizimini qamrab olishi va kelishuv jarayoni tushunchasi bilan parallel qo‘llanilishi aniqlangan.

Huquqiy nizolarda kelishuv tartib-taomillarni qo‘llash natijalariga ko‘ra, kelishuv bitimi, ariza berish to‘g‘risidagi bitim, kelishuv tartib-taomillari protsedurasini o‘tkazish to‘g‘risidagi bitim, mehnat nizosida jamoaviy ishni hal qilish natijalari bo‘yicha kelishuv bitimi tuzish mumkin. Amalda “kelishuv” bitimining turli nomlanishdagi ko‘rinishlari ham mavjud bo‘lib, ularning nomlanishi ko‘rib chiqilayotgan nizoning mohiyatiga, nizolarni hal qiluvchiga va nizo taraflariga qarab o‘zgarishi mumkinligi yoritilgan.

Hamda qonunchilikda kelishuv, bir tomondan amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan turli tartib qoidalarini birlashtirgan murakkab tarmoqlararo huquqiy institut sifatida, ikkinchi tomondan nizoli ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishning psixologik va huquqiy elementlarini o‘z ichiga olgan maxsus usuli sifatida ko‘rib chiqilishi mumkinligi, huquqda murosaga kelish muammosi asosan tarmoq yuridik fanlari pozitsiyasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan va nazariy umumlashtirishlarni talab qilishi bayon qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Xorijiy tajribada ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni kelishuv tartib-taomillari orqali sudda hal etish protsedurasi tahlili”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, mazkur bobda ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda hal etishda qo‘llaniladigan sud mediatsiyasining o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari, ma’muriy nizolarni sudda kelishuv tartib-taomillari orqali hal etishda qo‘llaniladigan cheklovlar tahlili, ma’muriy nizolarni sudda kelishuv tartib-taomillari orqali hal etish protsedurasi tahlili rivojlangan xorijiy davlatlarning qonunchiligi va amaliyotidan kelib chiqib o‘rganildi.

Xorijiy mamlakatlarning ushbu sohadagi amaliyotini o‘rganishda roman-german va anglo-sakson huquq tizimi mamlakatlari doirasida teng ravishda Germaniya, Fransiya, Rossiya, AQSH, Buyuk-Britaniya va Kanada mamlakatlarining qonunchilik tajribasi o’rganildi.

O‘rganish davomida ushbu mamlakatlarning sud tizimi doirasida olib boriladigan sud mediatsiyasining ahamiyati o’rganilib jamiyatda o‘z nufuziga ega bo‘lgan sud

[6] Павлушина А. А. Теория юридического процесса: итоги, проблемы, перспективы развития. – 2005. С. 150-160.

hokimiyati tomonidan nizolarni hal etishning kelishuv shakli (mediatsiya)ni qo‘llab quvvatlanishi, u sud tomonidan sud muhokamasi qatorida nizolarni hal etishning alohida bir protsessual shakli sifatida qo‘llanishi jamiyatda nizolashuvchilar o‘rtasida mediatsiya-kelishuv jarayonlarining rivojlanishiga sabab bo‘lishi, sudda nizolarni muqobil usulda ko‘rib chiqadigan alohida protsessual jarayon - sud mediatsiyasini sud amaliyotida joriy qilish lozimligi, shuningdek, sud mediatsiyasini sud tomonidan nizolarni hal etishning sud muhokamasidan alohida olib boriladigan bir shakli sifatida qarash lozimligi haqida xulosaga kelindi.

Hamda ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda muqobil usulda kelishuv orqali hal etishda xorijiy amaliyotda mavjud cheklovlar o‘rganilib, ularning o‘ziga xos ahamiyati tahlil qilingan va yuqorida ko‘rib chiqilgan biror-bir xorijiy mamlakatlar tajribasida uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan shartlarni nazarda tutadigan ishlar bo‘yicha kelishuv bitimining tuzilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilanmaganligi, balki kelishuv uchinchi shaxs manfaatlariga zid bo‘lmasligi belgilanganligi haqida xulosaga kelingan va qonunchlikka takliflar berilgan.

Bundan tashqari bob doirasida o’rganilgan Germaniya, Fransiya, Rossiya, AQSH, Buyuk-Britaniya va Kanada mamlakatlarining sud amaliyoti va qonunchiligida ma’muriy nizolarni sudda muqobil usulda, kelishuv tartib-taomillari orqali hal etishning protsessual jihati o‘rganilgan va ularni mamlakatimiz qonunchiligiga implementatsiya qilish yuzasidan takliflar berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ma’muriy va ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda hal etishda kelishuv tartib-taomillarini qo‘llash istiqbollari”** deb nomlandi. Ushbu bobda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra nizolarni sudda hal etishda kelishuv tartib-taomillarini qo‘llashning amaliy-nazariy asoslari, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo‘yicha ma’muriy nizolarni sudda muqobil hal etish yuzasidan muammolar va takliflar hamda qonunchilik sud amaliyoti bo‘yicha yurtimizda ma’muriy nizolarni sudda hal etishda kelishuv tartib-taomillarini qo‘llash imkoniyatlarining amaliy jihatlari va istiqbolli tahlili bayon qilingan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ma’muriy, qolaversa, iqtisodiy va fuqarolik nizolarni sudda hal etishda sudya tomonidan taraflarni kelishtirish bo‘yicha qilinadigan harakatlarni aniqlashtiradigan protsessual qoidalarni, kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlanguniga qadar, sudya va sud tomonidan olib boriladigan protsessual harakatlarni ya’ni sud muhokamasi, sud muhokamasidan keyin yoki sud muhokamasiga qadar sud tomonidan taraflarning kelishuviga ko‘maklashish yuzasidan olib boriladigan protsessual qoidalarni ishlab chiqish lozimligi, kelishuv tartib-taomillari orqali hal etishda taraflarni murosaga keltirish protsessini olib boradigan alohida sudyalar korpusini shakllantirish, milliy qonunchiligimizda nizolarni sudda ko‘rishda kelishuv tartib-taomillarini qo‘llashga oid bo‘lgan qoidalarni bir qonunchilik tarkibida rivojlantirish, umumlashtirish va soha qonunchiligida ularni qo‘llashga oid xos qoidalarni belgilash hamda umumiy qoidalar bo‘yicha boshqa qonunchilikka havola qilish amaliyotni joriy qilish lozimligi haqida xulosaga kelingan.

Hamda nizolarni sudda ko‘rishda ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning kelishuv protsedurasini qo‘llash mumkin bo‘lgan toifasida ekanligini aniqlash, shuningdek, ushbu nizo bo‘yicha nizoli holatni hal etishda ma’muriy organga ixtiyoriylik berilganligini aniqlash, nizo predmeti bo‘yicha kelishuv shartlari uchinchi shaxslarning manfaatlarini nazarda tutmaslik sharti bilan kelishuv tartib-taomillarini qo‘llash mumkinligi, shuningdek, qonunda uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan shartlarni nazarda tutadigan ishlar bo‘yicha kelishuv bitimi ularning roziligi bilan amalga oshirish mumkinligi bayon qilingan.

Dissertatsiya doirasida o‘rganilgan statistik ma’lumotlar bugungi kunda sudda nizolarni muqobil usullarda hal etishni kengaytirish ushbu sohada ko‘p yillik tajribaga va samaradorlikka ega bo’lgan xorijiy mamlakatlarning tajribasini o’rganish va ularning tajribasidan milliy qonunchiligimizni rivojlantirishda foydalanish zarurligini ko’rsatadi.

Dissertatsiya natijalariga ko’ra yurtimizda nizolarni sudda hal etishda kelishuv bitimini qo‘llash sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasizligi ham aynan sud ichida olib boriladigan kelishuv tartib-taomillarini (sud mediatsiyasini) joriy qilish bilan bevosita bog’liqligi, ma’muriy qolaversa fuqarolik va iqtisodiy nizolarni ham muqobil hal etishda, kelishuv institutini rivojlantirishda sud hokimiyatining ko‘magi, qo’llab quvvatlashi zarurligi asoslantirilgan.

XULOSA

«Ma’muriy va ommaviy huquqiy nizolarni hal etishning muqobil usullari va kelishuv bitim» mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy takliflar hamda xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:

1. Ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning nazariy-huquqiy jihatdan quyidagi toifalarini alohida ko‘rsatish taklif etildi:

a) ma’muriy huquqiy faoliyat bilan birga bevosita mehnatga yoki ta’limga yoxud boshqa ma’muriy shartnomalarga oid masalalar bilan bog’liq holda uchraydigan sof bo’lmagan aralash ma’muriy huquqiy munosabatlar doirasidagi nizolar;

b) faqatgina ma’muriy huquqiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, qonunchilikda belgilangan xos (reglament, nizom, yo‘riqnoma va b.) yoki umumiy ma’muriy tartib-taomillar asosida vujudga keladigan sof ma’muriy huquqiy munosabatlar doirasidagi nizolar.

2. Ma‘muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar deganda - bir tarafda ma’muriy huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo’lgan davlat boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar yoxud ularning mansabdor shaxslari va ikkinchi tarafda esa manfaatdor shaxs sifatida ma’muriy huquqiy faoliyatda ma’muriy hujjat yoki ma’muriy harakat qaratilgan shaxs, shuningdek, huquqlari va qonuniy manfaatlari ma’muriy hujjatga yoki ma’muriy harakatga daxldor bo‘lgan

yoxud daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslar o’rtasida yuzaga keladigan nizoli huquqiy munosabatlar tushunilishi taklif etildi.

3. Huquqiy amaliyotda va fanda nizolarni muqobil usullarda hal etishning sudgacha bo‘lgan tartib, muzokara, mediatsiya, hakamlik (arbitraj), xalqaro tijorat arbitraji, kelishtirish, yordam berish, vositachilik, faktlarni aniqlash, kichik sud muhokamalari (dastlabki sud muhokamalari, mediatsiya protsessi), arbitraj va ombudsman kabi usullari mavjud. Nizolarni hal etishning muqobil usullari sifatida keltirilgan ushbu ro‘yxat tugal emas va uni qonunchilik taqiqlamagan usullarda istagancha kengaytirish mumkin.

4. Istiqbolli natijalari umid qilingan nizolar bo‘yicha qonunchilik hujjatlarida muqobil hal etish usuli sifatida muzokaralarni qo‘llashni sudgacha majburiyligini aniq belgilab qo‘yish mumkinligi asoslantirildi.

5. Sudda nizolarni muqobil usullarda hal etishda kelishuv tartib-taomillari bilan shug‘ullanadigan alohida tayorgarlikka, tajribaga ega sudya-mediator (vositachi), alohida olib boriladigan sud mediatsiyasi jarayonini jarayonning istiqbolli natijalarini ta’minlovchi omil ekanligi asoslantirildi.

